
The establishment of exchange institutions in Uzbekistan under market reforms

Khidirov Anvar Allayorovich

a.khidirov@mail.ru

Independent Researcher,
Karshi State University

Annotation *The article analyzes the establishment, formation, and development of exchange institutions in Uzbekistan under market reforms from a historical perspective. It examines the political, economic, and legal factors that influenced the emergence of exchange institutions during the transition to a market economy, the formation of the regulatory and legal framework governing their activities, and the development of exchange infrastructure. The article also analyzes the establishment and operation of commodity and stock exchanges and their role in fostering a competitive environment and developing market relations in the country. The study identifies the main stages in the establishment and institutional development of exchange institutions in Uzbekistan.*

Keywords *Uzbekistan, market reforms, market economy, exchange institutions, commodity exchange, stock exchange, exchange infrastructure, market relations, institutional development, economic reforms, competitive environment, independence*

O'zbekistonda bozor islohotlari sharoitida birja institutlarining tashkil topishi

Xidirov Anvar Allayorovich

a.khidirov@mail.ru

Mustaqil tadqiqotchi,
Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya *Maqolada O'zbekistonda bozor islohotlari sharoitida birja institutlarining tashkil topishi, shakllanishi va rivojlanish jarayonlari tarixiy nuqtai nazardan tahlil etilgan. Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida birja institutlarining vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatgan siyosiy, iqtisodiy va huquqiy omillar, ularning faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy asoslarning shakllanishi hamda birja infratuzilmasining rivojlanishi yoritilgan. Shuningdek, tovar-xomashyo va fond birjalari faoliyatining yo'lga qo'yilishi, ularning mamlakatda raqobat muhiti va bozor munosabatlarini shakllantirishdagi o'рни tahlil qilingan. Tadqiqotda O'zbekistonda birja institutlarining tashkil topishi va institusional rivojlanishining asosiy bosqichlari aniqlangan.*

Kalit so'zlar *O'zbekiston, bozor islohotlari, bozor iqtisodiyoti, birja institutlari, tovar-xomashyo birjasi, fond birjasi, birja infratuzilmasi, bozor munosabatlari, institusional shakllanish, iqtisodiy islohotlar, raqobat muhiti, mustaqillik*

Становление биржевых институтов в Узбекистане в условиях рыночных реформ

Хидиров Анвар Аллаярович

a.khidirov@mail.ru

Независимый исследователь,
Каршинский государственный университет

- Аннотация** *В статье с исторической точки зрения анализируются процессы создания, становления и развития биржевых институтов в Узбекистане в условиях рыночных реформ. Рассматриваются политические, экономические и правовые факторы, повлиявшие на возникновение биржевых институтов в процессе перехода к рыночной экономике, формирование нормативно-правовой базы, регулирующей их деятельность, а также развитие биржевой инфраструктуры. Кроме того, анализируются становление и деятельность товарно-сырьевых и фондовых бирж, их роль в формировании конкурентной среды и развитии рыночных отношений в стране. В ходе исследования определены основные этапы становления и институционального развития биржевых институтов в Узбекистане.*
- Ключевые слова** *Узбекистан, рыночные реформы, рыночная экономика, биржевые институты, товарно-сырьевая биржа, фондовая биржа, биржевая инфраструктура, рыночные отношения, институциональное становление, экономические реформы, конкурентная среда, независимость*

Kirish

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida tub institutsional o'zgarishlar davrini boshlab berdi. Markazlashtirilgan reja iqtisodiyotidan bozor munosabatlariga o'tish mulkchilik shakllarini diversifikatsiya qilish, xususiyl sektorini rivojlantirish, erkin narx shakllanishi mexanizmlarini joriy etish hamda tovar, kapital va moliyaviy resurslarning bozor tamoyillari asosida harakatlanishini ta'minlaydigan yangi iqtisodiy institutlarni shakllantirishni talab etdi. Ana shunday institutlar orasida birjalar bozor infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi sifatida alohida o'rin egalladi.

O'zbekistonda birja institutlarining shakllanishi aslida mustaqillik arafasidayoq boshlangan edi. 1991-yil 28-martda Respublika universal tovar birjasini tashkil etishga qaratilgan qarorning qabul qilinishi mamlakat hududida zamonaviy birja savdosining institutsional asoslarini yaratish yo'lidagi dastlabki muhim qadamlardan biri bo'ldi (O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasi, 1991). Mazkur jarayon bozor mexanizmlarini shakllantirish, talab va taklif nisbatini aniqlash, bozor narxlarini

shakllantirish va xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida yangi savdo munosabatlarini rivojlantirish zarurati bilan bog'liq edi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida birja faoliyatini huquqiy va tashkiliy jihatdan tartibga solish davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. 1991-yil 27-dekabrda birja faoliyatini muvofiqlashtirishga qaratilgan Prezident farmonining qabul qilinishi ushbu sohani tartibga solish mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qildi (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 1991). Keyinchalik birjalar faoliyatini muvofiqlashtirishga doir hukumat qarorlari va 1992-yilda "Birjalar va birja faoliyati to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi birja institutlarining huquqiy maqomini mustahkamlash uchun muhim normativ asos yaratdi (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasi, 1992; O'zbekiston Respublikasi, 1992).

Bozor iqtisodiyotining shakllanishi bilan bir qatorda birja institutlarining funksional tarkibi ham kengaya bordi. Dastlab tovar va xomashyo resurslari savdosiga ko'proq e'tibor qaratilgan bo'lsa, xususiylashtirish, aksiyadorlik munosabatlari va kapital bozorining rivojlanishi

fond birjasi institutlariga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirdi. Shu nuqtai nazardan, 1993-yilda "Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi qimmatli qog'ozlar bozorining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirishda muhim bosqich bo'ldi (O'zbekiston Respublikasi, 1993).

Birja institutlarining rivojlanishini faqat alohida savdo tashkilotlarining vujudga kelishi bilan cheklab bo'lmaydi. Ushbu jarayon bozor infratuzilmasining shakllanishi, xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy mustaqilligi, tovar va moliyaviy resurslarni taqsimlash mexanizmlarining o'zgarishi, raqobat muhitining rivojlanishi hamda davlatning iqtisodiyotni tartibga solish usullaridagi transformatsiya bilan uzviy bog'liq edi. 1994-yilda ulgurji va birja savdosi bo'yicha maxsus respublika aksiyadorlik uyushmasini tashkil etishga doir qarorning qabul qilinishi ham birja va ulgurji savdo infratuzilmasini tashkiliy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan choralardan biri edi (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, 1994).

1990-yillarning oxiri va 2000-yillarning boshlarida esa birja savdosining samaradorligi, savdo mexanizmlarining shaffofligi va birja infratuzilmasini takomillashtirish masalalari ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi. Jumladan, 1999-yilda birja va yarmarka savdosining samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning belgilanishi birja institutlari rivojlanishining yangi bosqichini ifodaladi (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, 1999). Keyingi normativ-huquqiy hujjatlar ulgurji va birja savdosi tizimini takomillashtirish hamda tovar-xomashyo birjalari faoliyatini rivojlantirishga qaratildi (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, 2001, 2004).

Shu jihatdan, O'zbekistonda bozor islohotlari sharoitida birja institutlarining tashkil topishini tarixiy jihatdan o'rganish bozor iqtisodiyoti institutlarining shakllanish qonuniyatlarini aniqlash, davlat iqtisodiy siyosatining evolyutsiyasini baholash hamda birja infratuzilmasining mamlakat iqtisodiy transformatsiyasidagi o'rni yoritish imkonini

beradi. Mazkur masalaning tarixiy tadqiq etilishi birja institutlarining shakllanishini muayyan normativ hujjatlar ketma-ketligi sifatida emas, balki O'zbekistonda bozor munosabatlari qaror topishining murakkab institutsional jarayoni sifatida talqin etishni talab qiladi.

Asosiy qism

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, markazlashgan ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotidan bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish yo'lini tanladi. Ushbu tarixiy jarayonda birja institutlarining tashkil etilishi va rivojlantirilishi bozor infratuzilmasini shakllantirishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ldi. 1994-yilda "Toshkent" universal tovar-fond birjasi negizida "Toshkent" respublika fond birjasi va O'zbekiston Respublika tovar-xomashyo birjasining tashkil etilishi respublikada birja savdosining institutsional asoslarini yaratdi. Keyingi o'ttiz yildan ortiq davr mobaynida birja tizimi tashkiliy-huquqiy, texnologik va infratuzilmaviy jihatdan tubdan o'zgarib, zamonaviy elektron savdo platformalariga asoslangan milliy bozor infratuzilmasining ajralmas qismiga aylandi. Ushbu jarayonning har bir bosqichi o'ziga xos tarixiy shart-sharoitlar, iqtisodiy zaruratlar va institutsional o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, ularni yaxlit tarixiy tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mustaqil O'zbekistonda birjalar va birja savdolari tizimining yaratilishi va rivojlantirilishi bevosita yangi bozor munosabatlarining joriy etilishi va erkin savdo-sotiq amaliyotlarini qo'llab quvvatlashda sezilarli ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur holatda 1991-2025 yillarda qabul qilingan birjalar va birja savdolarini tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy hujjatlarning ahamiyati katta sanaladi. Ushbu davrda sohani tartibga solish va taraqqiyotini ta'minlashni ko'zlagan tarixiy-huquqiy hujjatlar bozor iqtisodiyotini shakllantirish bilangina cheklanmasdan, balki shaffof raqobat muhitini yaratish va monopoliyaga barham berishda asosiy vositalar majmui rolini bajardi.

Shuningdek qabul qilingan normativ hujjatlar bozor munosabatlariga o'tish davomida narxlarning sun'iy oshib ketishini cheklash va tadbirkor-ishbilarmonlarga barobar imkoniyat yaratishda kafil bo'lib xizmat qildi.

O'zbekistonda birjalar va birja savdolari tarixini tartibga soluvchi normativ-me'yoriy hujjatlarni tahlil qilish ularni 3 ta davriy bosqichga bo'lish imkonini beradi.

1. 1991-2006 yillar – mustaqil O'zbekistonda birja tizimining vujudga kelish va shakllanish bosqichi.
2. 2007-2016 yillar esa birja savdolari tizimini takomillashuv bosqichi.
3. 2017-2025 yillar esa birja tizimini zamonaviy jahon bozorlari talablari darajasida yangilash va raqamlashtirish bosqichi sanaladi.

Bunday davriy yondashuvning negizini har bir bosqichda davlat siyosatining maqsadi, huquqiy tartiblash yo'nalishlari va birja sohasining rivojlanishida sodir bo'lgan sifat o'zgarishlari tashkil qiladi.

I davr. Birja tizimining shakllanishi (1991-2006).

O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1991 yil 28 martdagi 71-son "O'zbekiston SSRda Respublika universal tovar birjasini tashkil etish to'g'risida"gi qarori bilan O'zbekistonda 1930 yildan beri birinchi marta birja savdolariga asos solina boshlandi. Mazkur qaror birjalar va birja savdolarini tartibga soluvchi normativ-hujjatlarga asos bo'lib xizmat qildi.

Negaki, *birinchidan*, ushbu qarorda Toshkent shahrida Respublika universal tovar birjasini tashkil etish belgilanib, birja faoliyatini yo'lga qo'yish uchun Savdo vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar davlat qo'mitasi, Savdo-sanoat palatasi va boshqa davlat idoralari muassis sifatida qayd etildi.

Ikkinchidan, narxlarni shakllantirish va kotirovka qilish tamoyillarini ishlab chiqish, xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarning birja a'zoligi va savdolarda ishtirok etishiga ruxsat berish, birjada erkin almashtiriladigan valyutada hisob-kitob qilish va xorijiy

xaridorlarga mahsulot sotish tartibini ishlab chiqish masalalari aks etdi.

Uchinchidan, birja savdolarida naqd tovarlar va muddatli (forvard) bitimlarni tuzishga ruxsat berilib, maklerlar, kotirovka komissiyasi va arbitraj komissiyasini tashkil etish belgilandi.

To'rtinchidan, birjaning asosiy funksiyalari sifatida talab va taklifni aniqlash, narxlarni kotirovka qilish, bozor axborotini taqdim etish hamda yarmarka va auksionlarni tashkil etish belgilandi (O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasi, 1991).

Ushbu chora tadbirlar mustaqillikka erishish arafasidayoq erkin savdo munosabatlarini rivojlantirish siyosati davlat siyosatining bir qismi bo'lganligini ko'rsatadi.

1991 yil 27-dekabrda PF-303-son Prezident Farmoni(lex.uz) bilan Birjalar kengashi respublika hududida birja faoliyatini muvofiqlashtiruvchi organ sifatida tashkil etildi.

Mazkur farmon asosida Birjalar davlat ro'yxatidan o'tkazilishi va bu vakolat Adliya vazirligiga yuklatildi. Bunda vazirlik Birjalar kengashi bilan kelishilgan holda davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi joriy etildi.

1992 yil 3 martdagi Vazirlar Mahkamasining qarori(1992) bilan birjalar faoliyatini ro'yxatga olishning tartib qoidalari to'la ishlab chiqildi.

Xuddi shu yili 2 iyulda qabul qilingan birjalar to'g'risidagi davlat qonuni(lex.uz) respublikada soha negizini belgilab bergan asosiy qonun sanaladi.

Chunki, mazkur qonun "Birjalar va birja faoliyati to'g'risidagi" birinchi maxsus qonun bo'lib, unda birjaning huquqiy maqomi, faoliyat prinsiplari, turlari va tashkiliy-huquqiy shakllari qonuniy tartibda belgilab qo'yildi.

Shuningdek, birja savdolari ishtirokchilari – brokerlar, dilerlar hamda brokerlik va dilerlik firmalarining huquqiy maqomi qayd etildi.

Qolaversa, birjalarda spot, forvard, fyuchers va opsiyon bitimlarini tuzishga ruxsat berilib, birja bitimlari, nizolarni hal etish hamda birja qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik choralari qat'i'y belgilab qo'yildi.

Umuman olganda mazkur qonun bilan birjalar huquqiy jihatdan o'z tartibini topib, erkin bozor va savdo munosabatlariga asos solindi.

1993 yil 2 sentyabrda "Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida"gi Qonun (lex.uz) qabul qilinib, O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozori va fond birjalari faoliyatining huquqiy asoslari yaratildi. Qimmatli qog'ozlar muomalasi, fond birjalarida bitimlarni tuzish hamda ular ustidan davlat nazoratini amalga oshirishning huquqiy tizimi belgilandi.

1994 yil 14 martda Vazirlar Mahkamasining 136-son qarori bilan "O'zshartnomasavdo" tugatilib, uning negizida O'zbekiston ulgurji va birja savdosi bo'yicha Respublika aksiyadorlik uyushmasi – "O'zulgurjibirjasavdo"ni tashkil etish belgilandi. "O'zulgurjibirjasavdo"ga ulgurji savdo, tovar-xomashyo birjalari, yarmarka va kimoshdi savdolarini tashkil etish hamda ularda yuridik va jismoniy shaxslar ishtiroki uchun qulay sharoitlar yaratish vazifasi yuklatildi (lex.uz).

1999 yil 15 aprelda Vazirlar Mahkamasining 174-son "Birja va yarmarka savdosining samaradorligini oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan ayrim tovarlarni tovar-xomashyo birjalari orqali eksport qilish faqat erkin almashtiriladigan valyutada amalga oshirilishi joriy etildi. Mazkur qaror bilan birja va ko'rgazma-yarmarka savdolarida tuziladigan shartnomalar bo'yicha tovarlarni sotish, sotib olish va olib chiqib ketishning yagona tartibi tasdiqlandi. Tovarlarni tovar-xomashyo birjalari orqali chet el valyutasiga eksport qilish tartibi tasdiqlandi (lex.uz).

2001 yil 1-mayda Vazirlar Mahkamasining 198-son "Ulgurji va birja savdosini tashkil etish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori (lex.uz) bilan respublikada ulgurji va birja savdosini tashkil etish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari belgilandi. Mazkur qaror bilan "O'zulgurjibirjasavdo" uyushmasi tugatilib, uning negizida "O'zulgurjisavdo" aksiyadorlik kompaniyasi tashkil etildi. Qoraqalpog'iston

Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi hududiy tovar-xomashyo birjalarini O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasiga filial sifatida qo'shish hamda respublika bo'yicha yagona elektron birja savdo tizimini joriy etish belgilandi. O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi huzurida metall buyumlar, yog'och-taxta va qurilish materiallari bo'yicha ixtisoslashtirilgan savdo maydonchalari tashkil etilishi belgilandi. Tovar-xom ashyo birjasi va uning filiallari 5 yil muddatga mol-mulk solig'idan ozod qilinib, bo'shaydigan mablag'larni elektron birja savdo tizimini rivojlantirishga yunaltirish belgilandi.

"Tovar xom ashyo birjalari faoliyatini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2004 yil 31-maydagi Vazirlar Mahkamasi qarori (2004) elektron birja savdolari, kimoshdi va ko'rgazma-yarmarka savdolari joriy etildi. Birja a'zolari, brokerlar va dilerlarning huquqiy maqomi belgilandi. Internet orqali elektron birja savdolarida ishtirok etish imkoniyati yaratildi. Birja faoliyati uchun yangi lisenziya talablari joriy qilinib listingga kiritilmagan tovarlarni birja savdolarida sotish taqiqlandi. O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi uch yil muddatga foyda solig'idan ozod qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasining 2006 yil 13-iyuldagi "Birja savdolarining elektron tizimlariga qo'yiladigan umumiy talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori (lex.uz) bilan birja savdolarining elektron tizimlariga qo'yiladigan yagona davlat talablari tasdiqlandi. Unga ko'ra elektron savdo tizimiga ega bo'lish birja faoliyatini amalga oshirishning majburiy sharti etib belgilandi. Bu esa birja savdolarini real vaqt rejimida masofadan turib o'tkazish imkonini berdi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda bozor islohotlarining amalga oshirilishi jarayonida birja institutlarining tashkil topishi mamlakat iqtisodiyotini bozor tamoyillari asosida qayta qurishning muhim

yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Birja institutlarining shakllanishi mulkchilik munosabatlarining o'zgarishi, erkin raqobat muhitining qaror topishi, tovar va moliya bozorlarining rivojlanishi hamda ularning huquqiy-institusional asoslarini yaratish bilan bir vaqtda kechdi. Tovlar-xomashyo va fond birjalarining faoliyatini yo'lga qo'yish orqali bozor

infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi shakllantirilib, iqtisodiy sub'yektlar o'rtasidagi munosabatlarning yangi mexanizmlari qaror topdi. Shu nuqtai nazardan, birja institutlarining tashkil topishi O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonining muhim tarixiy-institusional natijalaridan biri sifatida baholanadi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (1999, 15-aprel). *Birja va yarmarka savdosining samaradorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida* [Qaror]. LexUZ.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2004, 31-may). *Tovar xom ashyo birjalari faoliyatini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida* [Qaror].
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (1994, 14-mart). *O'zbekiston ulgurji va birja savdosi bo'yicha respublika aksiyadorlik uyushmasi — "O'zulgurjibirjasavdo"ni tashkil etish va uning faoliyati masalalari to'g'risida* [Qaror].
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2001, 1-may). *Ulgurji va birja savdosini tashkil etish tizimini takomillashtirish to'g'risida* [Qaror].
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasi. (2006, 13-iyul). *Birja savdolarining elektron tizimlariga qo'yiladigan umumiy talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida* [Qaror].
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasi. (1992, 3-mart). *O'zbekiston Respublikasida birjalar faoliyatini muvofiqlashtirish to'g'risida* [Qaror].
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (1991, 27-dekabr). *O'zbekiston Respublikasida birja faoliyatini muvofiqlashtirish to'g'risida* [Farmon]. LexUZ.
8. O'zbekiston Respublikasi. (1992, 2-iyul). *Birjalar va birja faoliyati to'g'risida* [Qonun]. LexUZ.
9. O'zbekiston Respublikasi. (1993, 2-sentyabr). *Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida* [Qonun].
10. O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasi. (1991, 28-mart). *O'zbekiston SSRda Respublika universal tovar birjasini tashkil etish to'g'risida* [Qaror].